

RAQAMLI BOZORDA USTUN MAVQENI SUIISTE'MOL QILISHNING EKSPLYUZIV SHAKLI

Razzaqova E'zoza Yusup qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Razzaqova22@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13788909>

Annotatsiya. Ushbu tezisda rivojlanib borayotgan raqamli bozorlarda raqobat muhiti hamda ustun mavqega ega subyektlarning o'z raqobatchilariga qarshi raqobat qonunlarini cheklovchi xatti-harakatlari haqida so'z boradi. Google, Uber singari raqamli bozor ishtirokchilarining o'z ustun mavqelarini suiiste'mol qilish holatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ustun mavqe, eksklyuziv shartlar, raqamli bozor, monopol past narxlar, raqobat muhiti.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli bozorlarda raqobat muhitini tartibga solish ham borgan sari murakkablashib bormoqda. Raqamli bozorlar deganda o'z-o'zidan an'anaviy bozorlarning raqamli shaklga ko'chishini tushunamiz. Raqobat esa iqtisodni rivojlantirish uchun bozor subyektlarining raqobat qonunlarini buzmaydigan xatti-harakatlaridir. Aynan raqobat muhitida ustun mavqega ega bo'lgan subyektlarning ta'siri katta ahamiyatga ega sababi ular, bozorga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsata oladi. Amaldagi qonunchilikda ustun mavqe tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Tovar yoki moliya bozoridagi xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining unga o'z faoliyatini raqobatlashuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish, tegishli bozorga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ushbu boshqa subyektlarning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holati ustun mavqedir.

Tovar yoki moliya bozorida quyidagilar ustun mavqe deb e'tirof etiladi:

agar xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining raqobatchilari mavjud bo'lmasa;

agar xo'jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining bozordagi ulushi 40 foizni va undan ortiqni tashkil etsa;

agar xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tabiiy monopoliya subyekti deb e'tirof etilsa;

agar xo'jalik yurituvchi subyektga yoki shaxslar guruhiga muayyan tovarlarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish yoxud olish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda mutlaq va (yoki) eksklyuziv huquq berilgan bo'lsa.

Oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz ming baravaridan kamroqni tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining (bundan tabiiy monopoliya subyektlari, mahsulotlarining narxлари davlat tomonidan tartibga solinadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar mustasno) tovar yoki moliya bozoridagi holati ustun mavqe deb e'tirof etilmaydi.¹ Ustun mavqeni suiiste'mol qilish esa aynan mana shu huquqlarni chetlab o'tishdir. Nazariy jihatdan ustun mavqeni suiiste'mol

¹ O'zbekiston Respublikasining Qonuni Raqobat to'g'risida. 13-modda. <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>

qilishning ikki ko'rinishi bo'lib, ulardan biri eksklyuziv, ikkinchisi ekspluatatsion shakllardir. Eksklyuziv shaklda ustun mavqega ega subyekt raqobatchilarga ta'sir qiladi va ularning bozordagi erkin faoliyatlarini cheklaydi. Ekspluatatsion shaklda esa, Ustun mavqega ega subyekt iste'molchilarga ta'sir qiladi va ularning tanlov, narxlar va erkin sotib olish huquqlarini cheklashi mumkin.

Eksklyuziv shakl. Ustun mavqe'ni suiste'mol qilishning chetlashtiruvchi shakllari (eksklyuziv suiiste'mollar)

boshqa ustun xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga to'sqinlik qilish;

ularning imkoniyatlarini cheklash;

bozorga kirish to'siqlarini o'rnatish, potentsial raqobatni bartaraf etish yoki zaiflashtirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan barcha amaliyotlarni o'z ichiga oladi.

Ustun mavqe'ga ega xo'jalik yurituvchi subekt o'z raqobatchilarining xatti-harakatlariga ta'sir qilish yoki ularni bozordan siqib chiqarish uchun marjinal xarajatlardan ham pastroq yoki juda past narx belgilashi mumkin.

Tovar va moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan subyektning o'z raqobatchilariga qarshi harakatlari sanaladi. Bular sirasiga dominant bozor ishtirokchisi boshqa subyektlarni bozorga kiritmaslik uchun uni cheklashi, imtiyozli shartnomalar tuzish (mijozlar yoki yetkazib beruvchilar bilan eksklyuziv shartnomalar tuzib, boshqa raqobatchilarni ular bilan ishlashini cheklash) bu o'z-o'zidan raqobatchilarning bozordagi o'rniga ta'sir ko'rsatadi, monopol past narxlardan foydalanish, dominant korxona kichik raqobatchilarning qurbi yetmaydigan darajada narxlarni pastga tushirib yuboradi va butkul zararga kirgan raqobatchi bozorni tark etadi. Bu shartlar orasida barcha bozorlarda keng tarqalgani tovarning monopol past narxidir. Tovar narxi past bo'lsa mijozlar aynan o'sha tovarlarga talabgir bo'ladi, raqobatchilar esa, bunday narxlarga bardosh bera olmaydi. Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan tovarning tannarxidan past darajada va mazkur tovarni sotishdan zarar keltiradigan darajada belgilanadigan, natijada raqobat cheklanishiga olib keladigan narx tovarning monopol past narxidir.² Bunga misol tariqasida, Googlening 2014-yilda reklama bozorida qilgan huquqbuzarligini keltirish mumkin, u reklama noshirlari bilan avvaldan kelishuvga erishgan va ustun mavqeni suiiste'mol qilgan. O'zining dominant noshiri reklama serveri DFP tomonidan o'tkaziladigan reklama tanlovi auksionida o'zining AdX reklama birjasini afzal ko'rib, AdXni kim oshdi savdosida g'alaba qozonish uchun yengib o'tishi kerak bo'lgan raqobatchilarning eng yaxshi taklifi qiymati haqida oldindan xabardor qiladi, bu esa boshqa raqobatchilarning bozordagi faoliyatiga zarba beradi.³ Google Android keysi (2018): Yevropa Ittifoqi Google'ni yana bir bor raqobat huquqini buzishda aybladi. Bu safar kompaniya Android operatsion tizimi orqali ustun mavqeini suiiste'mol qilgan. Google Android qurilmalari ishlab chiqaruvchilarini Google Search va Chrome ilovalarini qurilmalarida oldindan o'rnatishga majburlagan, shuningdek, Google Play Store'dan foydalanish uchun eksklyuziv shartlar qo'ygan. Bu amallar boshqa

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni Raqobat to'g'risida. 12-modda. <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>

³ Antitrust: Commission sends Statement of Objections to Google over abusive practices in online advertising technology. https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/ip_23_3207

qidiruv tizimlariga va brauzerlarga bozorga kirishni qiyinlashtirgan. Natijada Google'ga 4,34 milliard yevro jarima solindi.⁴

Bulardan tashqari, raqamli bozor ishtirokchisi sifatida Uber ham ba'zi bir shunday raqobatni cheklovchi harakatlarni amalga oshirgan. Uberning monopol mavqeini suiiste'mol qilganiga oid muhim holatlardan biri Fransiyada yuz bergan. Uber 2014 yilda Fransiyada UberPop xizmatini joriy qildi. Ushbu xizmat orqali litsenziyasiz haydovchilar yo'lovchilarni tashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu rasmiy taksi kompaniyalari va litsenziyalangan haydovchilar tomonidan norozilikka sabab bo'ldi, chunki ular bu amaliyotni noqonuniy va adolatsiz raqobat deb hisobladilar. Fransiya hukumati tez orada UberPop xizmatini noqonuniy deb e'lon qildi. 2015 yilda sud qarori bilan UberPop to'xtatildi, chunki haydovchilarda yo'lovchilar tashishga ruxsat beruvchi litsenziya yo'q edi. Shu bilan birga, Uber noqonuniy transport xizmatlarini tashkil qilganlik uchun jarimaga tortildi.⁵ Bulardan shu anglashiladiki, raqobat muhitida ustun mavqega ega subyekt eksklyuziv shartlar orqali o'z ustun mavqeyini suiiste'mol qilishi, bozor muhitida raqobatni cheklanishi, iqtisodiy rivojlanish to'sig'i va raqobat qonunchiligining buzilishiga olib keladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risida qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>;
2. Uber fined in France over UberPop Published 9 June 2016. <https://www.bbc.com/news/business-36491926>;
3. Google Android https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/ip_23_3207;
4. Antitrust: Commission sends Statement of Objections to Google over abusive practices in online advertising technology. https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/ip_23_3207.

⁴ Google Android https://ec.europa.eu/commission/presscorner/detail/en/ip_23_3207

⁵ Uber fined in France over UberPop Published 9 June 2016. <https://www.bbc.com/news/business-36491926>